

O'QUVCHILARDA OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI VA METODLARI

Abdunazarova Dildora Qahramon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

AbdunazarovaD@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15602080>

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq uning og'zaki va yozma shakli, og'zaki va yozma nutqning turlari, og'zaki nutqning xususiyatlari, og'zaki nutqni rivojlantirish usullari va metodlari batafsil yoritilgan. O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga oid metodlar amalda sharhlab berilgan.

Annotation: This article details the types of oral and written speech, features of oral speech, methods and techniques for the development of oral speech. Methods related to the development of students' oral speech have been commented on in practice.

Kalit so'zlar: Nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, so'zlashuv uslubi, usul va metodlar.

Abstract: Speech, oral speech, written speech, colloquial style, methods and methods.

Ma'lum bir kasb va sohada muvaffaqiyatga erishish uchun, avvalo, shu sohaning yetuk mutaxassisi bo'lishi, qolaversa, xorijiy tillarni bilishi, ijtimoiy muhitda o'z fikrini aniq va qisqa, tinglovchi shaxsga tushunarli tarzda yetkazib bera olish ham muhimdir. Shu bois, yoshlarning savodxonligini oshirish, og'zaki nutqini rivojlantirish, ularni xalqaro maydonda ham muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun poydevor yaratadi. Ta'lim tizimida va ijtimoiy hayotda o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmasini o'stirish — milliy tilimiz va madaniyatimizni asrash, raqamli hamda global dunyoda o'z o'rnini mustahkamlash uchun zarur bo'lgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Og'zaki muloqot ko'nikmalari nafaqat ta'limda balki ijtimoiy hayot faoliyatida ham eng zarur bo'lgan ko'nikmalardan biridir.

Insonga boshqa mavjudotlardan farqli ravishda o'z fikrlarini, kechinmalarini bayon etish imkoniyati berilgan, bu imkoniyatni amalga oshirish vositasi esa nutqdir. Alisher Navoiy bobomiz buni alohida ta'kidlab, shunday misralarni keltiradilar.

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilgilki, guhari sharifroq yo'q ondin.

Nutq deganda, aloqa jarayonida tilning namoyon bo'lishi, ro'yobga chiqishi, voqelanishi tushuniladi. Nutq-tilning uzviy, hal etuvchi bo'lagi bo'lib, tilning barcha tomonlarini namoyish etadi. Nutq kundalik hayotda kishilar orasidagi o'zaro aloqa ehtiyojini qondiruvchi vositadir¹. Tilshunoslikda nutq monologik va dialogik ko'rinishda bo'lishi mumkin. Monologik nutqda bir kishining mulohazalariga qarshi savollarsiz yoki javoblarsiz yuzaga chiqadi. Suhbatdosh tomonidan bo'linmaydi. Dialogik nutqqa muloqot qiluvchi shaxslar navbat bilan goh tinglovchi goh so'zlovchi bo'lib turadi. Nutqni qanday usulda bayon qilishimiz, o'zgalarga qay holda yetqizishimizga ko'ra, nutqni og'zaki va yozma nutqqa ajratamiz. Harflar vositasida bayon qilingan nutq yozma nutq, hisoblansa, tovushlar orqali amalga oshiradigan nutqimizni og'zaki nutq deb ataymiz. Og'zaki nutq so'zlash- eshitishga qaratilgan bo'lsa, yozma nutq yozish-o'qishga qaratilgan bo'ladi. Nutqning yozma va og'zaki shakllari muayyan ko'rinishlarga ega. Yozma nutq ko'rinishlari:

¹ Nutq madaniyatiga oid masalalar. Fan, -1973.

- 1) badiiy nutq.
- 2) ilmiy nutq.
- 3) publitsistik nutq.
- 4) rasmiy nutq.
- 5) neytral nutq.

Ogʻzaki nutq esa turli ijtimoiy qatlamlar nutqlaridan, turli sheva nutqlaridan tashkil topadi. U quyidagi koʻrinishlarda namoyon boʻladi: betaraf (neytral), tantanali, ishqiy, yumoristik va satirik, rasmiy. Ogʻzaki nutq-bir yoki bir necha kishining ovoz chiqarib soʻzlashi asosida yuzaga keladi. Ogʻzaki nutq oʻz navbatida yana ikki turga boʻlinadi: dialogik va monologik. Fikr suhbat, muhokama, munozara shaklidagi nutqiy faoliyatlar davomida ogʻzaki bayon qilinadi.

Ogʻzaki nutqning xususiyatlari quyidagilar:

Suhbat – maʼlum bir mavzu yuzasidan dialog (yoki polilog) tarzida boʻlib oʻtadigan nutqiy muloqot.

Muhokama – biror masala yuzasidan koʻpchilikning fikrini toʻplash, maʼlum toʻxtamlarga kelishini anglatadi.

Munozara – biror masala yuzasidan taraflarning bahsini, tortishuvini anglatadi. Bahs jarayonida har bir ishtirokchi oʻzining haq ekanligini isbotlashga intiladi

Ogʻzaki nutqning yuzaga kelishida soʻzlashuv uslubi juda katta ahamiyatga ega, bu uslubda ohang - intonatsiyaning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ohang ogʻzaki nutqning reallashuvida til birliklaridan keyingi muhim, hal qiluvchi vosita boʻlib, uning nutq tempi, pauza, ton, melodiya, tovush tembi, soʻz va gap urgʻusi kabi koʻrinishlari maʼnoni farqlashda, oʻttenkalarni ajratib koʻrsatishda, hayajonni kuchaytirishda xizmat qiladi. Soʻzlashuv uslubi kishilarning kundalik rasmiy-norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining oʻziga xos tarzda amal qilishidir. Bu uslubning oʻziga xos xususiyati nutq jarayonida til va tildan tashqari omillarning uygʻun boʻlishida koʻrinadi. Bugungi kunda taʼlim jarayonida oʻquvchilarning ogʻzaki nutqini rivojlantirish muhim metodik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki ogʻzaki nutq — bu bolaning shaxsiy fikri, dunyoqarashi va ichki dunyosining ifodasidir. Oʻquvchi oʻz fikrini ravon, izchil va ishonch bilan bayon eta olsagina, u jamiyatda faol va muvaffaqiyatli shaxs boʻlib shakllanadi. Ogʻzaki nutq koʻnikmalari oʻz-oʻzidan shakllanmaydi — bu doimiy mashq, faol muloqot, eshitish va ifodalash jarayonlari orqali rivojlanadi. Shu bois, dars jarayonida soʻzlashuvga yoʻnaltirilgan metodlar, interaktiv usullar, guruhlarda ishlash, suhbatlar, bahs-munozaralar kabi faoliyatlar qoʻllanilganda, oʻquvchining til boyligi, nutq madaniyati va ijodiy tafakkuri yuksaladi. Shuningdek, ogʻzaki nutq — bu faqat grammatik jihatdan toʻgʻri gapirish emas, balki taʼsirchanlik, mantiqiylik, izchillik va ifodaviylikni oʻzida jamlagan koʻnikmadir. Oʻquvchining ogʻzaki nutqi rivojlangan sari uning yozma savodxonligi, mustaqil fikrlashi va muloqotda faol ishtiroki ham ortadi. Shu sababli, har bir pedagog ogʻzaki nutqni rivojlantirishni doimiy va izchil maqsad sifatida koʻzlashi, bu borada innovatsion va ijodiy metodlardan foydalanishi zarur. Ogʻzaki nutqni rivojlantirish usullari — bu bolalar yoki oʻquvchilarning ogʻzaki ifoda qilish, erkin fikrlash va muloqot qilish malakalarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan metodlar majmuasidir. Ogʻzaki nutqni rivojlantirishning asosiy usullariga “Erkin fikrlar maydoni”, “Soʻz sanʼati”, “Jonli soʻzlar sahnasi”, “Oʻqiymiz – oʻylaymiz – aytamiz”, “Tasvir tilida soʻzlash”, “Birgalikda bir fikr”, “Soʻzlar yulduzi”, “Talaffuz tarovati” singari metodlar orqali oʻquvchilarning ogʻzaki nutqini rivojlantirishimiz mumkin.

1. “Erkin fikrlar maydoni” metodi.

Maqsadi:

O'quvchilarning fikrini erkin aytish, savollarga javob berish, mulohaza yuritish ko'nikmasini shakllantirish.

Mohiyati:

O'qituvchi savollar beradi, o'quvchilar og'zaki javob beradi yoki o'zaro fikr almashadilar.

Darsda qo'llash shakli: Bu metoddan kirish suhbatlarida, "Savol-javob" mashqlarida, qolaversa matn yuzasidan ochiq savollar muhokamasida foydalanishimiz mumkin.

2. "So'z san'ati" metodi.

Maqsadi:

Fikrni izchil, mantiqiy va ifodali bayon qilish ko'nikmasini rivojlantirish.

Mohiyati:

O'quvchi rasm, matn yoki tajriba asosida og'zaki hikoya tuzadi. Hikoya tuzish jarayonida o'quvchining so'z qo'llash mahorati rivojlanadi.

Darsda qo'llash shakli: Matnni qayta aytishda, rasm asosida hikoya tuzishda, biron bir voqea asosida o'quvchining o'z shaxsiy fikr-mulohazalarini bayon qilishda qo'llash mumkin.

3. "Jonli so'zlar sahnasi" metodi.

Maqsadi:

Ifodali nutq, emotsiya va roldagi til vositalarini shakllantirish.

Mohiyati:

O'quvchi hikoya yoki ertak qahramonining rolini ijro etadi.

Darsda qo'llash shakli: O'quvchi badiiy asardagi biron bir ertak, hikoya, mashhur voqealarni sahnalashtirishda bu metoddan foydalanilganda samarali bo'ladi.

4. "O'qiyamiz - o'ylaymiz - aytamiz" metodi.

Maqsadi:

O'quvchilarning matn bilan ishlash, o'qiganini anglash, unga munosabat bildirish va og'zaki tarzda ifodalash ko'nikmasini shakllantirish.

Mohiyati:

Bu metodda o'quvchilar matnni o'qish jarayonida turli belgilar (✓, -, +, ?) orqali o'z fikrini belgilab boradilar. So'ngra shu belgilar asosida og'zaki izohlar, savollar, shaxsiy mulohazalar bildiradilar. Ya'ni: O'qilgan matn - fikrni anglash - og'zaki tushuntirish bog'lanmasi hosil bo'ladi.

Darsda qanday qo'llanadi? Matn tanlanadi. Oddiy, tushunarli va bolalarni fikrlantiruvchi kichik matn (ertak, maqola, hikoya) beriladi. Belgilar bilan o'qish. Belgilar Ma'nosi:

✓ Bilgandim.

- Qarshi fikrim bor / to'g'ri emas deb o'ylayman.

+ Yangi ma'lumotga ega bo'ldim.

? Tushunmadim yoki savolim bor.

O'quvchi matnda shu belgilarni qo'yadi.

Og'zaki izoh bosqichi:

O'quvchilar belgilar asosida quyidagicha og'zaki fikr bildiradilar:

"Men bu yerga ✓ qo'ydim, chunki bu haqida ilgari ham eshitganman."

"Bu yerga + qo'ydim, yangi ma'lumot oldim."

"? Belgisini qo'ydim, chunki bu joyni tushunmadim."

"- Belgisini qo'ydim, men bu fikrga qo'shilmayman."

Yakuniy suhbat:

O'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini umumlashtiradi, ularning savollariga javob beradi va og'zaki nutqini baholaydi.

Afzalliklari: O'quvchi faol o'quvchiga aylanadi. Og'zaki fikrni asoslashga o'rganadi. Matn bilan ishlash tahliliy va tanqidiy fikrlash asosida kechadi. Har bir o'quvchi fikrini aytishga undaladi. Bu metoddan ko'zlangan maqsad, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish. Hozirgi kunda e'tibor bersak, ko'plab o'quvchilar o'z fikrlarini erkin bildirishmaydi. Bu metodni beshinchi sinfdan to o'n birinchi sinf o'quvchilariga qo'llab ko'rsak, juda yaxshi natijalarni qo'lga kiritamiz. Bu metod orqali o'quvchilar o'zlarining shaxsiy fikrlarini omma oldida hech tortinmasdan bemalol bildirish oladilar, qolaversa tanqidiy fikrlash ko'nikmasi shakllanadi.

5. "Tasvir tilida so'zlash" metodi.

Maqsadi:

Tasviriy tafakkur va izchil fikr bayon qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Mohiyati:

Rasm yoki surat asosida voqea haqida og'zaki so'zlab berish.



Darsda qo'llash shakli: Bu metodni yuqoridagi topshiriqdan tashqari quyidagi hollarda ham qo'llashimiz mumkin. Biron bir rasmni ko'rsatib, nima bo'lganini aytib berish, rasm ketma-ketligi asosida voqea tuzish, "Nima bo'lgan deb o'ylaysan?" savolini o'rta tashlash orqali ushbu metoddan foydalansak bo'ladi.

6. "Birgalikda bir fikr" metodi.

Maqsadi:

Hamkorlikda fikr almashish, muloqot madaniyatini shakllantirish.

Mohiyati:

O'quvchilar kichik guruhlarda bir mavzu yuzasidan fikr yuritadilar.

Darsda qo'llash shakli: Dars jarayonida 3-4 kishilik guruh tashkil etib, bitta mavzu borasida mulohaza yuritishadi, har bir guruh fikrini og'zaki bayon etadi. Guruhlar o'zaro bahs-munozara qiladilar. Bu metod orqali o'quvchilarda fikr almashish, fikrlarni jamlash ko'nikmasi shakllanadi.

7. "So'zlar yulduzi" metodi.

Maqsadi:

Lug'at boyligini oshirish, so'zlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam berish.

Mohiyati:

Bitta asosiy tushuncha atrofida bog'liq so'zlarni guruhlab, gap tuzish.

Darsda qo'llash shakli: Klaster shaklida so'zlar yoziladi. O'quvchilar har so'zdan og'zaki gap tuzadilar. Har bir so'zning vazifasi muhokama qilinadi. Bu metod orqali o'quvchilar o'zlarining so'z boyligini oshirishadi hamda tezkorlik ko'nikmasini rivojlantiradilar.

8. "Savoldan hikoyaga" metodi.

Maqsadi: Tanqidiy fikrlash, og'zaki mulohaza yuritish va ijodiy ifoda qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Mohiyati:

O'quvchiga topshiriq beriladi, u savol asosida hikoya yoki og'zaki bayon yaratadi.

Darsda qo'llash shakli: O'quvchilarga biron bir rasm yoki matn asosida "Agar men shunday bo'lganimda..."

"Nima sababdan bu voqea yuz berdi?" kabi jumlar bilan boshlanuvchi savollar beriladi. O'quvchilar bu topshiriq orqali hikoya tuzishlari kerak bo'ladi. O'quvchi og'zaki sharhlaydi yoki tasvirlaydi. Bu metod o'quvchilarning xayolot dunyosi hamda tasavvur qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

9. "So'z sehlari" metodi.

Maqsadi:

Talaffuz, esda saqlash, ritm va diktsiyani rivojlantirish.

Mohiyati:

She'r yodlash, tez aytish, maqol va topishmoq aytish orqali og'zaki nutqni takomillashtirish.

Darsda qo'llash shakli: Har kuni bir tez aytish yoki maqol yodlatish. She'rni ifodali o'qitish mashqlari orqali.

10. "Mikrofon kimda?" metodi yoki "Aylanuvchi so'z" o'yini.

Maqsadi:

O'quvchilarda tez fikrlash, erkin nutq tuzish, mantiqiy bog'liqlikda gapirish, shuningdek, ijodiy fikrlash va tinglash madaniyatini shakllantirish.

Mohiyati:

"Mikrofon" (bu haqiqiy mikrofon bo'lishi shart emas – ruchka, qalam, yumshoq to'p bo'lishi mumkin) navbat bilan o'quvchilar qo'lga o'tadi. Har bir o'quvchi berilgan mavzuda og'zaki fikr bildirib, keyingi ishtirokchiga uzatadi. Gaplar zanjiri bir-biriga bog'lanadi yoki matn yaratiladi.

Darsda qanday qo'llanadi: Bu metodni "Hikoya tuzamiz" usulida tashkil qilganimizda, o'qituvchi bitta boshi bor jumla aytadi: "Bir kuni bolalar o'rmonga sayrga chiqishdi..." Mikrofon birinchi o'quvchiga beriladi – u davom ettiradi. Har bir o'quvchi bir-ikki gap aytadi va mikrofonni boshqa o'quvchiga uzatadi. Tugaguncha hikoya zanjiri davom etadi.

Ushbu metodni "Mavzuli fikrlar" usulida ham qo'llab ko'rishimiz mumkin.

Masalan, mavzu: "Do'stlik"

Har bir o'quvchi mikrofonni olib, do'stlik haqida bitta fikr aytadi. Takrorlanmasligi va mantiqiy bo'lishi shart. Boshqa o'quvchilar uni tinglaydi, istasa savol beradi.

"Mikrofon kimda" metodining afzalliklari: O'quvchilar erkin va faol bo'ladi. O'z fikrini mantiqiy tuzishga o'rganadi. O'zaro tinglash va hurmat qilish madaniyati rivojlanadi. Qiziqarli, harakatli va ijodiy dars muhiti yuzaga keladi. Tashabbuskorlik, o'zining mustaqil fikrini ifodalash qobiliyati shakllanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, og'zaki nutq — bu o'quvchining shaxsiy fikrini ifodalashi, o'zini erkin ifoda qilishi va muloqot madaniyatini egallashi uchun zarur bo'lgan muhim

ko'nikmadir. Bugungi ta'lim jarayonida og'zaki nutqni rivojlantirish nafaqat til va adabiyot darslarining, balki barcha fanlarning ustuvor vazifasiga aylangan. O'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirish va boyitish uchun turli xil innovatsion metodlardan foydalanish muhim sanaladi. Yuqorida keltirilgan: "So'z sehlari", "So'zlar yulduzi", "Tasvir tilida so'zlash", "O'qiyamiz – o'ylaymiz – aytamiz", "Savoldan hikoyaga", "Erkin fikrlar maydoni", "So'z san'ati", "Birgalikda bir fikr", "Jonli so'zlar sahnasi" va "Mikrofon kimda?" kabi metodlar o'quvchilarni og'zaki muloqotga jalb etish, ularda mustaqil fikrlash, mantiqiy izchillikda gapirish va ijtimoiy faol bo'lish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu metodlar dars jarayonida o'yin, guruhli ish, suhbat va bahslar orqali tashkil etiladi. Natijada, o'quvchi o'z fikrini ravon, mantiqan izchil, ifodali va ishonch bilan bayon qilishga odatlanadi. Shu boisdan, og'zaki nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan bu kabi metodlar maktab darslarida muntazam qo'llanilishi zarur. Chunki u o'quvchining nafaqat til madaniyatini, balki uning shaxsiy intellektual va kommunikativ salohiyatini ham yuksaltiradi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkinova D. "Og'zaki nutqning psixolingvistik tahlili". Toshkent-2018.21-b.
2. Mo'minov S., Nurmonova D., Karimova O. Nutq madaniyati, Toshkent, - 2005.
3. Nutq madaniyatiga oid masalalar. Fan, -1973.
4. S. Raxmonqulova. O'zbek tili darslarida og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. Metodik yondashuvlar, mashqlar, metodlar haqida: 22–35-b.
5. To'xtaev N. va boshqalar. Nutq madaniyati. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
6. Og'zaki nutq, til boyligi, nutq uslublari haqida: 46-58-b.
7. 10-sinf ona tili darsligi. Toshkent 2022.16-b.